



SAMARALI MULOQOTLARDA O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASHNING AMALIY JIHATLARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-sentabr kuni Nyu-York shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlari doirasida bir qator nufuzli delegatsiyalar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va yirik kompaniyalar yetakchilarini qabul qildi.



Donald J. Trump
@realDonaldTrump

Earlier this month I spoke with the Highly Respected President of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev. Today I want to congratulate President Mirziyoyev on signing a GREAT Deal with Boeing! Worth over \$8 Billion Dollars, Uzbekistan Airways is purchasing 22,787 Dreamliners. This will create over 35,000 jobs in the United States. President Mirziyoyev is a man of his word, and we will continue to work together on many more items! Thank you for your attention to this matter.

1.2k ReTruths 4.85k Likes

9/22/25, 6:29 PM

AQSH Prezidenti Donald Tramp “Truth Social” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida quyidagi postni yozib qoldirdi:

“Shu oy boshida men O‘zbekiston Prezidenti hurmatli Shavkat Mirziyoyev bilan suhbatlashgan edim. Bugun men Prezident Mirziyoyevni “Boeing” bilan ULKAN bitim imzolangani bilan tabriklayman! “Uzbekistan Airways” 8 milliard dollardan ortiq mablag‘ evaziga 22 ta 787 Dreamliner samolyotini xarid qiladi. Bu Qo‘shma Shtatlarda 35 000 dan ortiq ish o‘rinlarini yaratadi. Prezident Mirziyoyev — bir so‘zli inson va biz boshqa ko‘plab masalalar ustida birgalikda ishlashda davom etamiz! Bu masalaga e‘tiboringiz uchun tashakkur”.



Xalqaro valyuta jamg‘armasi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva bilan uchrashuvda ushbu nufuzli global tuzilma bilan sheriklikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Jamg‘arma bilan makroiqtisodiy siyosat, byudjet va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish sohalarida samarali hamkorlik qilinayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Mutaxassislarimiz XVJ

Uchrashuv davomida pul-kredit va fiskal siyosatni rivojlantirish, statistika tizimini transformatsiya qilish bo‘yicha jamg‘armaning ekspertlik ko‘magini davom ettirish, shuningdek, iqtisodiy

Alan Dokter, Kolorado geologiya maktabi vitse-prezidenti Jon Bredford, “FLSmith” kompaniyasi katta vitse-prezidenti Piter Flanagan, “McKinsey” kompaniyasining katta hamkori va Markaziy Osiyo bo‘yicha

hamkorlikni yanada kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi. “Traxys” muhim xomashyo va minerallar, shu jumladan, energetik o‘tish uchun zarur bo‘lgan xomashyo va minerallarni yetkazib

minerallarni qazib olish, qayta ishlash va barqaror yetkazib berish zanjirlarini yaratish sohasida ilg‘or texnologiyalar va bilimlarni joriy etish bo‘yicha bitim va “yo‘l xaritasi” qabul qilindi.



XVJ rahbari Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlarga yuksak baho berib, ortga qaytmas islohotlarni qat‘iy qo‘llab-quvvatlashini ta’kidladi.

markazlarida muntazam ravishda malaka oshirish dasturlaridan o‘tmoqda. Joriy yilda mamlakatimiz moliya sohasining barqarorligi birgalikda baholandi va “yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

idoralar xodimlari uchun o‘quv dasturlarini kengaytirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. AQSHning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvda “Traxys” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi



ofisi rahbari Yermolay Soljenitsin va “Go Green Partners” kompaniyasi bosh direktori Mixail Sedoy qatnashdi.

AQSHning ushbu yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli berish bo‘yicha jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi. Kompaniya bilan birgalikda geologiya-qidiruv va konlarni o‘zlashtirish sohasida 1 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirilgan. Muhim

Kolorado konchilik maktabi tog‘-kon sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha yetakchi muhandislik universitetidir.

[Davomi 2-beta](#)

IKKI TOMONLAMA ALOQALARNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-sentabr kuni Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq va baxt-saodat, qardosh turkman xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Faol siyosiy muloqot va samarali idoralararo aloqalar yo‘lga qo‘yilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayiriboshlashni ko‘paytirish, sanoat va energetikada kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. “Shovot

— Toshovuz” savdo zonasini qurilishi yakunlanmoqda. O‘zbekistonda Hududlar forumi, ko‘rgazma, Turkmaniston madaniyati va kinosi kunlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari va bo‘ljak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqildi.

Muloqot so‘ngida davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti va xalqini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan samimiy tabriklandi.

O‘ZA

DUNYODA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH ORZU EMAS, QO‘LIMIZ YETADIGAN MAQSAD

O‘ZBEKISTON TAJRIBASI BUNI YAQQOL ISBOTLAYDI

Joriy yil 17-18-sentabr kunlari Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi shu kunlarda jahon hamjamiyati diqqat-e‘tiborida bo‘lib turibdi. Mazkur tadbirda 500 dan ortiq mehmon, xususan, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMT tuzilmalari, Jahon banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Xalqaro mehnat tashkiloti rahbarlari va yuqori martabali vakillar, shuningdek, qator hamkor davlatlar delegatsiyalari ishtirok etgani tadbirning ahamiyatidan dalolat beradi.

Forumda Prezidentimiz nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bugun dunyo miqyosida kechayotgan murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurash davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, umummilliy harakatga aylandi. Bu jarayonda barcha islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgani muhim samaralar bermoqda. So‘nggi sakkiz yilda odamlarning haq-huquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta‘minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlar qilindi.

[Davomi 3-beta](#)



Taraqqiyot mezonlari

DUNYODA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

ORZU EMAS, QO‘LIMIZ YETADIGAN MAQSAD

O‘ZBEKISTON TAJRIBASI BUNI YAQQOL ISBOTLAYDI

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilayotir. Uzoqni ko‘zlagan va inson manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yilgan shunday izchil islohotlar natijasida hozirgi kunda Barqaror rivojlanish maqsadlarining qariyb yarmiga erishilib, ularning 70 foizida ijobiy natija qayd etildi.

Global hamjamiyat 2030-yilgacha dunyoda kambag‘allikka barham berish, atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, tinchlik va farovonlikni ta‘minlashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi jihatlarini mujassamlashtirgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qilgan. Biroq so‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab sharoitlar oqibatida hozirgi kunga kelib global miqyosda ushbu maqsadlarning atigi 18 foiziga erishilgan.

Shunday murakkab vaziyatda yurtimizda bu boradagi o‘ziga xos natijalar yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Zero, ekspertlar qayd etganidek, kambag‘allikni qisqartirish keng qamrovli jarayon, bu yo‘nalishda ish olib borish va biror natijaga erishish uchun har bir davlat ko‘plab vazifalarni samarali hal etishi lozim. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ana shunday muhim jihatlarini o‘zida mujassam etgani bilan ahamiyatli.

Ushbu dastur doirasida belgilangan chora-tadbirlar tizimli asosda amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot hajmi 2 barobardan ziyod, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi esa 1,8 barobar ko‘paydi. Xalqaro moliya va rivojlanish tashkilotlari bilan birgalikda o‘tkazilgan muloqotlar va o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda minimal iste‘mol xarajatlari hamda kambag‘allikni hisoblashning milliy mezonini ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Mazkur davrdan buyon kambag‘allik darajasi qariyb 3 barobar qisqarib, 2025-yil yakunida 6 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Bunda qishloq hududlarida kambag‘allik darajasi shaharlardagiga nisbatan tezroq sur‘atda pasayib, 2021-yildagi 19,8 foizdan 2024-yilda 9,2 foizga tushdi. Shaharlarda kambag‘allik darajasi esa ushbu davrda 13,9 foizdan 8,6 foizga qisqargan.

Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishda mahallaning rolini oshirish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari instituti va mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Kambag‘allikni qisqartirishda aholi bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy darverlar sifatida belgilandi. Xususan, so‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari soni 2 barobar ortib, 1,2 milliontaga, kichik tadbirkorlik bilan



o‘zini o‘zi band qilganlar soni esa 5,5 millionga yetdi. Ishsizlik darajasi 5,5 foiz atrofida saqlanmoqda. Yurtimiz aholisi yiliga o‘rtacha 700-800 ming nafarga oshib borayotgani fonda inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa,

yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi.

So‘nggi 7 yilda maktabgacha va maktab ta‘limi sohasi uchun ajratilgan mablag‘ hajmi 7 karra oshirilib, maktablarda 1 millionga yaqin

o‘quv o‘rni yaratildi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 8 barobar ortib, qamrov darajasi 78 foizga ko‘tarildi. Kambag‘al oilalar farzandlari bog‘cha to‘lovlaridan to‘liq ozod qilindi.

Oliy ta‘lim qamrovi 9 foizdan 42 foizgacha

oshib, oliy ta‘lim muassasalari soni 6 barobar ko‘paydi. Kambag‘al oilalar farzandlari hamda xotin-qizlarning sifatli ta‘lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida foizsiz ta‘lim kreditlari ajratilmoqda.

Aholi turmush darajasini yuksaltirish va yashash sharoitini yaxshilash maqsadida keyingi 8 yilda 12 mingta ko‘p qavatli uy-joy qurilib, ularning umumiy maydoni 31 million kvadrat metrdan oshdi. 56 ta hududda 135 mingta xonadondan iborat “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo qilinmoqda.

Forumda xalqaro ekspertlar mamlakatimizda ushbu islohotlar samarasi xususida to‘xtalar ekan, dunyoda kambag‘allikni qisqartirish orzu emas, qo‘limiz yetadigan maqsad ekani, O‘zbekiston tajribasi buni yaqqol ifoda etishini alohida e‘tirof etdi.

Ikki kun davom etgan forumda shu yo‘nalishda yurtimizda erishilayotgan natijalar, bu jarayonda xalqaro hamkorlik xususida fikrlashildi. Tadbir doirasida kambag‘allikni qisqartirishda yangi yo‘nalishlarni belgilash, mavjud muammolarga zamonaviy va samarali yechim topish, O‘zbekistonda o‘rtirilgan tajribani xalqaro hamjamiyat bilan o‘rtoqlashish maqsadida alohida muhokamalar tashkil etildi.

Shuningdek, forum doirasida qator hamkorlik bitimlari, shartnoma va memorandumlar imzolandi. Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va “mahallabay” ishlash tizimida qilingan ishlar, amaliy natijalar bilan tanishish maqsadida mahallalar va ko‘rgazmalarga tashriflar uyushtirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu xalqaro forum kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va aholi turmush darajasini yaxshilash kabi dolzarb masalalarni hal etishda xalqaro muloqotni kuchaytirish va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirishda muhim platforma vazifasini o‘tadi.

AHOLINI DAROMADLI QILISHDA
HAR BIR HUDUDNING O‘Z
YO‘NALISHI PAYDO BO‘LDI

Botir ZOHIDOV,
kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik vaziri:

— “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi ko‘tarinki kayfiyatda va yuksak ishchanlik ruhida o‘tdi. Unda yetakchi ekspertlar, olimlar va ko‘plab mutaxassislar ishtirok etgani dunyoda tinchlik va taraqqiyotga erishish aholi farovonligini oshirish bilan bog‘liq dolzarb masalalarni chuqur tahlil etishda muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, Prezidentimizning nutqida bu borada ilgari surilgan muhim g‘oya va tashabbuslar barchaning e‘tiborini tortdi.

Kambag‘allikni qisqartirish keng qamrovli jarayon bo‘lib, buning uchun bir qancha yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish talab etiladi. Bu borada O‘zbekiston tajribasini tahlil etsak, buning mohiyati yanada oydinlashadi. Sir emas, yurtimizda mazkur ishlar boshlanganida aholimizning uchdan bir qismi kambag‘allik chegarasida yashardi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu borada yangi tashabbus va tajribalar sinovdan o‘tkazilib, dunyodagi ijobiy yutuqlar o‘rganilib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi O‘zbekiston modeli yaratildi. Izchil islohotlar natijasida bugungi kunga kelib, aholini kambag‘allikdan chiqarish va daromadli qilishda har bir hududning o‘z tajribasi paydo bo‘ldi, 7,5 million aholi kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 2024-yilda 8,9 foizga tushirildi. Yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan.

Albatta, qisqa muddatda bunday natijalarga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Bunda jamiyatning eng quyi bo‘g‘iniga tashabbus, “mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgani, har bir xonadon, oila bilan individual reja asosida ishlanyotgani samarasini bermoqda.

Kambag‘allikni qisqartirishda aholining mehnat bozori talablariga mos ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhim. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi kasbiy ko‘nikmalar markazlari hamda xususiy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘al va ishsiz aholini kasb-hunar, tadbirkorlikka o‘qitish



oxirgi 8-yilda 25 barobar oshirildi. Xususan, 2017-yilda 7 ming ishsiz aholi kasb-hunarga jalb qilingan bo‘lsa, joriy yilning o‘tgan davrida 170 ming aholi ushbu jarayonlarga tortildi, yil yakuniga qadar bu qamrov 230 ming nafarga yetkazildi.

Ta‘lim sifatiga alohida e‘tibor qaratilib, joriy yilning o‘zida vazirlik tizimidagi 64 ta kasbiy ko‘nikmalar markazining 200 ga yaqin o‘qituvchisi xorijiy davlatlarda malaka oshirdi. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan hamkorlikdagi o‘quv markazlari soni 5 taga yetkazildi. Ushbu markazlar bitiruvchilarida 95 foiz ish topish va 97 foiz ish beruvchilar tomonidan qanoatlantirish darajasi qayd etilmoqda.

Bu yil grant mablag‘lar hisobidan Xorazm viloyati kasbiy ko‘nikmalar mintaqaviy markazi qurildi hamda jihozlandi. Shuningdek, Jahon banki bilan hamkorlikda avtomobillar, shu jumladan, elektromobillarga texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida 10 ta viloyatdagi kasbiy

ko‘nikmalar markazlari o‘quv jihozlari bilan ta‘minlandi.

Mehnat bozori talablari asosida joriy yilning o‘tgan davrida 12 ta yangi kasbga o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Joriy yil fevral oyidan boshlab kambag‘al va ishsiz aholini vaucher tizimi asosida kasb-hunarga o‘qitishga kirishildi. Mazkur tizim orqali aholini o‘zi tanlagan kasbiy ta‘lim muassasalarida o‘qitish imkoniyati yaratildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda hududlarda kambag‘al oila a‘zolari uchun axborot texnologiyalari yo‘nalishida o‘quv kurslari tashkil etildi. 4 ta yo‘nalish bo‘yicha 168 ming yosh, shundan, kambag‘al oilalarning 36 ming farzandi o‘qitildi. Kelgusida kambag‘al oilalar a‘zolarini qamrab olish ulushi 40 foizga yetkazildi.

Kelgusida bu boradagi ishlar yanada kengaytirilib, korxonalar bilan yaqin hamkorlik, ta‘lim dasturlarini bozorga moslashtirish, vakansiyalarni raqamli platformada ochiq bildirish yo‘li bilan ko‘nikmalar bozor talablariga moslashtiriladi. Toshkent shahrida “Kreativ sohalar klasteri” tashkil etilmoqda.

Xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik davom ettiriladi. Jumladan, Jahon banki bilan birgalikda 10 ming ayol biznes ko‘nikmalarga o‘qitiladi. Ular o‘z biznesini tashkil qilishi uchun grant ajratiladi. Vazirlik tizimidagi qator kasbiy ko‘nikmalar markazlari har bir hudud ixtisoslashuvidan kelib chiqib, aniq bir sohaga yo‘naltiriladi.

Ana shunday keng qamrovli loyiha va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda 2030-yilga borib O‘zbekistonda kambag‘allikka to‘liq barham berishni maqsad qilganmiz.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Intervyu

AYOLLAR QADR-QIMMATINI
ULUG‘LASH USTUVOR MASALA

Mukarrama NURMATOVA,
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi
o‘rinbosari:

— Kambag‘allikka qarshi kurashish bugungi kunda butun dunyoda dolzarb vazifaga aylandi. Zero, xalqaro hamjamiyat bu borada qat‘iy choralar ko‘rishiga qaramay, muammo tobora chuqurroq ildiz otmqda. Bir tomondan, dunyodagi notinchliklar, nizolar, ikkinchi tomondan, ekologik muammolar vaziyatni yanada og‘irlashtirmoqda.

Ushbu noxush holatlardan aholining eng o‘jiz qatlami hisoblangan ayollar va bolalar ko‘proq aziyat chekayotgani yanada tashvishli. Shu bois, dunyoda barqarorlik va taraqqiyotga erishish, tinch-osoyishta hayotimizga soya soladigan holatlarni tezroq bartaraf etish zimmasidagi muhim vazifadir.

Kambag‘allikka qarshi kurashish masalalariga bag‘ishlab yurtimizda o‘tkazilgan xalqaro forum ayni shu jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirda ko‘plab dolzarb masalalar qatorida xotin-qizlar huquqini himoyalash, bandligini ta‘minlash, jamiyatda faolligini oshirish yuzasidan qizg‘in fikr almashildi. Bu bejiz emas. Chunki har bir davlat va jamiyat rivoji, avvalo, ayollar uchun yaratilgan sharoitlar, intilishi va salohiyatini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq imkoniyatlar orqali baholalanadi.

Shu bois, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta‘minlash, qadr-qimmatini

ulug‘lash yangi O‘zbekiston siyosatida ustuvorlik qilinmoqda. Bu jarayonda ayollarni ijtimoiy himoyalash, bandligini ta‘minlash, ta‘lim olishi, oila va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun barcha sharoitlar yaratilayapti.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida ham ayollarni jamiyatning faol a‘zosiqa aylantirish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta‘minlash, ta‘lim olishiga ko‘maklashish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlar oliy ta‘lim maskanlarida o‘qishi uchun foizsiz kredit ajratilib, magistraturada bepul ta‘lim olishi yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda talabalarning 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning o‘zida 1 million 700 ming ayol ishli bo‘lgani quvonarlidir.

Bu ishlar izchil davom ettirilib, “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming qizni axborot texnologiyalari, fintex va sun‘iy intellektga o‘qitish ko‘zda tutilgan.

Xotin-qizlar jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish doimiy e‘tibordir. Jumladan, bu yil ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 1,5 milliard dollar

ajratildi. Kelgusi yil ushbu mablag‘ yanada ko‘paytirilib, 2 million ayol doimiy daromadli bo‘lishi uchun sharoit yaratish rejalashtirilayapti.

Albatta, uzoqni ko‘zlab va xalqimiz, kelajak avlodlarimiz uchun farovon hayotni barpo etish o‘ziga xos sharoit berayotgan samaralarni ko‘rish barchamiz uchun farahlidir. Masalan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o‘rtacha 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozir bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a‘zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda.

Bundan bir necha yillar ilgari ayollar orasidan yirik tadbirkorlar chiqib, katta-katta korxona tashkil etadi, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, ham o‘zi, ham o‘z galarga manfaat keltiradi deyilsa, ishonish qiyin bo‘lardi. Bugun bu hayot haqiqatiga aylandi. Opa-singillarimiz orasidan katta tadbirkorlar, ishbilamonlar chiqib, jamiyatimiz rivojiga o‘z ulushini qo‘shmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari fikrimizni yaqqol isbotlaydi.

Unda qayd etilishicha, 2025-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 ming 860 tani tashkil etgan. Tadbirkor ayollarimiz, ayniqsa, xizmatlar, avvalo, sanoat va boshqa iqtisodiy faoliyat turlarida sandoq. Ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalarning mahsulot sotishidan tushgan sof daromadi 47,7 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davridagidan qariyb 10,1 trillion so‘m oshgan.

Yurtimizda ayni paytda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlar izchil davom etyapti. Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilayapti. Kelgusi yildan shu maqsadda ijtimoiy sug‘urta tizimi qamrovini keskin oshirish ko‘zda tutilmoqda. Bu esa ayollarning kambag‘allikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Davlatimiz rahbari forumda so‘zlagan nutqida ana shu jihatlariga ham e‘tibor qaratib, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish bo‘yicha yangidan yangi tajribalarni o‘rtoqlashish maqsadida kelgusi yil Namanganda o‘tadigan Osiyo ishbilamon ayollari forumiga barchani taklif qildi. Albatta, bu shuni anglatadiki, mamlakatimizda inson qadri va manfaatlarini himoyasiga yo‘naltirilgan islohotlar izchil davom etadi. Bu ezgu ishlar, eng avvalo, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, faolligini yanada oshirishga turki bo‘ladi. Ayollar faolligi oshib borishi esa jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

Anvar TO‘LAGANOV,
Milliy statistika qo‘mitasi
boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Islohotlar barometri

Bugungi dunyo barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Kechagina dolzarb bo‘lgan masalalar hozirgi kunda oddiy holatga aylanib qolmoqda. Yuqori darajadagi raqobat, jadal o‘zgarishlar va yuzaga kelayotgan talablar har qanday sohada islohotlarni chuqurlashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish zarurati tug‘diradi.

Joriy etiladigan bugungi har qanday yangilik kelajak uchun munosib qadamdir. Donishmand Sugrot “O‘zgarishlarning siri eski bilan kurashish emas, balki yangisini yaratishga e’tibor qaratishdir”, degan edi. Yangilik yaratilmagan, o‘zgarishlar yo‘q joyda taraqqiyot bo‘lmaydi.

Hozir barcha sohalarida transformatsiya jarayonlari katta sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiya yangi to‘liqni boshdan kechirmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish amalga oshirilmoqda, sun’iy intellekt faol rivojlanmoqda.

Statistika sohasida ham jarayonlarni yagona yondashuv asosida tizimli boshqarish, raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sifatini boshqarish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy qilish katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida ham statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish orqali yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida barcha foydalanuvchilarni haqqoniy va sifatli statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Mazkur farmon bilan statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Milliy statistika tizimini tubdan isloh qilish orqali belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni, shuningdek, statistika sohasida transformatsiya jarayonlarini samarali

amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan raqamli va sun’iy texnologiyalarni keng joriy etish, integratsiya jarayonlarini yanada kengaytirish, biznesga hisobot yukini kamaytirish, statistik ma’lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, milliy statistika tizimini xalqaro amaliyotga mos ravishda takomillashtirish yo‘nalishlarida keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmogda.

Xususan, raqamli texnologiyalar va integratsiya yo‘nalishida “Hududlar statistikasi” axborot tizimi joriy etilmogda. Ushbu axborot tizimida barcha viloyat, tuman hamda shaharlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy holat to‘g‘risida dolzarb va ishonchli ko‘rsatkichlar aks ettirib boriladi.

Natijada ma’lumotlarni vizual grafiklar va interaktiv xarita ko‘rinishida tasvirlash orqali tahlil jarayonlari osonlashtiriladi, foydalanuvchilar uchun esa hududlar bo‘yicha dolzarb va yuqori talabga ega ma’lumotlarni olish imkoni yaratiladi.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 21 ta vazirlik va idora bilan 30 ta yo‘nalishda axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish jarayonlari olib borilmoqda. Ushbu jarayonlarni yil oxiriga qadar to‘liq yakunlash ko‘zda tutilgan bo‘lib, natijada 4 mingdan ortiq ko‘rsatkichni integratsiya yo‘li bilan qabul qilish ta’minlanadi.

Mazkur islohotlar integratsiya jarayonlarini kengaytirish, statistik hisobotlarni qisqartirish orqali biznesni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan.



Yangiliklardan yana biri, 2025-yil yakuni bo‘yicha hisobot davridan boshlab biznes subyektlariga hisobot topshirish yuki yanada kamaytiriladi.

Jumladan, xodimlar soni yillik o‘rtacha 5 kishidan kam bo‘lgan va (yoki) yillik tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 2000 barobarigacha bo‘lgan mikrofirmamda kichik korxonalar uchun yillik statistika hisobotini topshirish majburiyati bekor qilinadi va ular har uch yilda bir marotaba statistik hisobot topshiradi.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan 260 mingdan ortiq biznes subyekti 2026-yildan

boshlab har yili statistika hisoboti topshirish majburiyatidan ozod bo‘ladi.

Sun’iy intellekt
maslahat beradi

Yurtimizda statistika sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yilmogda.

Xususan, 2026-yildan boshlab hisobotlarni topshirishda korxona va tashkilotlarga sun’iy intellektga asoslanib, maslahat beruvchi “Maslahatchi” interaktiv xizmati joriy etiladi. Ushbu xizmat statistika hisobotlarini to‘ldirishda real vaqt rejimida respondentlarga maslahatlar beradi, ularga xatoliklarni aniqlashda ko‘maklashadi, foydalanish uchun zarur bo‘lgan yo‘riqnom va hujjatlariga havolalar taqdim etadi. Bu esa hisobotlar sifatini oshirib, ma’lumotlar yanada ishonchli bo‘lishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, kelgusi yildan boshlab foydalanuvchilarga statistika ma’lumotlarini sun’iy intellektga asoslanib, tez izlab topishga ko‘maklashuvchi “Tahlilchi” konsultativ xizmati ham yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur xizmat foydalanuvchilarga statistika ma’lumotlaridan foydalanish davrida zarur ma’lumotlarni tez izlab topish va tahlil qilishga yordam beradi, shuningdek, ularning ehtiyojlariga ko‘ra boshqa ma’lumot va izohlarni ham tavsiya etadi.

Soha oldida turgan vazifalarning navbatdagi kadrlar salohiyatini oshirish va

jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlashdir. Milliy statistika tizimi uchun yosh va istiqbolli mutaxassis kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmini joriy etish maqsadida 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab Milliy statistika qo‘mitasida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiy statistika kafedrasida filiali tashkil etilmogda.

Bunda ta’lim jarayoniga Milliy statistika qo‘mitasining malakali amaliyotchi mutaxassislarni jalb etgan holda nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanadi hamda talabalarining malakaviy amaliyotlari bevosita statistika organlarida tashkil etiladi.

Shuningdek, aholi va keng jamoatchilikni dolzarb va ishonchli statistik hamda tahliliy ma’lumotlar bilan ta’minlab borish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida mediamarkaz tashkil etilmogda.

Ushbu maqsadda Milliy statistika qo‘mitasining axborot siyosatini yuritish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, unga asosan, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, soha faoliyati hamda tadbirkorlik subyektlari hisobdorligi bo‘yicha tizimli targ‘ibot va tashviqot o‘tkazish hamda statistik ko‘rsatkichlarni yoritib borishga oid aniq ishlarni bajarilmoqda.

Rasmiy statistik ko‘rsatkichlar asosida infografika rolilari va topiklar tayyorlanib, turli telekanallar hamda internet saytlarda, Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng jamoatchilikka namoyish etib borilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlar bilan muntazam davra suhbatlari o‘tkazib borish orqali o‘zaro hamkorlik kuchaytirilmogda. Shuningdek, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan foydalanuvchilar o‘rtasida ma’lumotlardan foydalanish darajasi bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazilib, natijalari qo‘mita veb-saytida har chorakda e’lon qilib borilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan barcha tadbirlar jamoatchilik, shu jumladan, rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqalarni yanada mustahkamlash uchun samarali xizmat qilmoqda.

Sohada milliy strategiya

Har bir sohada vaqti-vaqti bilan qilingan ishlarni sifati tahlil etilib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlab, kelgusi faoliyat ko‘lami belgilab olinadi.

Ayniqsa, bu amallar malakali xorijiy mutaxassislar ko‘magida bajarilishi ish sifatini xolisona baholash hamda faoliyat samaradorligini oshirish uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Joriy yilda Milliy statistika qo‘mitasi oldiga milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini joriy etish holatini tarmoq baholashdan (Sectoral Review) o‘tkazishni tashkil etish vazifasi belgilangan edi.

Ushbu maqsadda joriy yilning iyun oyida BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi xalqaro ekspertlari va mustaqil xorijiy ekspertlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimi tarmoq baholashdan o‘tkazildi.

Tarmoq baholash doirasida xalqaro ekspertlar bilan statistika sohasini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy usullar borasida tajriba almashishlar tashkil etildi va zarur tavsiyalar olindi.

Xususan, statistika ma’lumotlarini xalqaro GSIM va GSBPM modellari asosida shakllantirish, faoliyatni xalqaro GAMSO modeli talablariga moslashtirish borasida maslahatlashuvlar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, joriy yilda Milliy statistika qo‘mitasiga xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Statistika rivojlantirishning 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan.

Shu o‘rinda o‘quvchilarimizda statistika sohasidagi milliy strategiya o‘z ichiga nimalarni oladi degan savol tug‘ilishi mumkin.

Milliy strategiya ko‘p yillik statistika dasturi shaklida milliy statistika tizimi uchun ishlab chiqiladi va rasmiy statistikaning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

U Milliy statistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasidan, strategik maqsadlaridan va ustuvor yo‘nalishlaridan, shuningdek, rasmiy statistikasini rivojlantirishga doir dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlaridan iborat bo‘ladi.

Hozirgi kunda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida milliy strategiyani ishlab chiqish jarayonlariga yuqori malakali xalqaro ekspertlarni jalb etish ishlari olib borilmoqda.

Sohani transformatsiya qilishga oid yangiliklardan yana biri — Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish ofisi tashkil etilish belgilangan. U sohaga yangi mexanizmlarni joriy qilish bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadi.

Transformatsiya ofisini tashkil etishdan asosiy maqsad statistik kuzatuvlar o‘tkazish va ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqqlashtirish, sohada islohotlarni jadallashtirish hamda xalqaro tashkilotlar ishtirokida kadrlar salohiyatini oshirishdan iboratdir.

Joriy yilda Milliy statistika qo‘mitasi qator nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlat statistika idoralari bilan hamkorlikni kengaytirdi.

BMTning Statistika bo‘limi, Yevropa iqtisodiy komissiyasi va Aholisunilik jamg‘armasi (YUNFPA), Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki, MDH Statistika qo‘mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalari va doimiy muloqot o‘rnatilgan.

Bundan tashqari, joriy yilda ilg‘or xorijiy tajribalarni almashish doirasida Yaponiya, Janubiy Koreya, Belarus, Gruziya va boshqa qator davlatlar statistika idoralari vakillari bilan uchrashuv va muzokaralar o‘tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish faqat ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlardan emas, balki bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan yangicha yondashuvlar va faoliyat yo‘nalishlaridan iborat. Sohada muvaffaqiyatni ta’minlash esa ushbu yondashuv hamda faoliyat yo‘nalishlarini har jihatdan uyg‘un va bir maromda tizimli rivojlantirishga erishishni taqozo etadi.

Pirovardida ushbu omillar yangi O‘zbekiston statistikasining xalqaro me’yor va standartlarga mos bo‘lishini ta’minlash hamda rasmiy statistika ma’lumotlariga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish borasida yurtimizda kechayotgan samarali islohotlar natijasini ko‘rsatadi.



Rishton kulolchilik maktabi an’analar qariyb sakkiz yuz yillik tarixga ega. Oddiy tuproqdan mo‘jiza yaratayotgan kulollar mehnat asrlar osha dunyo ahlini rom etib kelmoqda. Mahsulotlar o‘ziga xos ko‘rinishi, tabiiy va qalampir nuxxali tilsimiy naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda kulollik an’analarini rivojlantirish, ustalar uchun munosib mehnat sharoiti yaratish, ichki va tashqi bozorda xaridorigir mahsulot turlarini ko‘paytirishga e’tibor kuchaydi. Bugun Rishton tumanida 80 mingdan ortiq kishi kulollik bilan shug‘ullanadi.

Buyuk ipak yo‘lining Farg‘ona vodiysidan o‘tuvchi qismida joylashgan shahar nomi qadimiy sug‘dchadagi “qizil yer” so‘zidan paydo bo‘lgan. Zero, bu yerning tuprog‘i qizil tusli edi. Rishton kulollari mahalliy xomashyodan sopol idishlar yasagan va ularni moviy hamda zangori ranglar bilan bezagan. XIX asr oxiriga kelib, Rishton Markaziy Osiyoda sirlangan sopol idishlar ishlab chiqaruvchi yirik markazlardan biriga aylandi. 1990-yilda Rishton sopol idishlari Parijda o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmada namoyish etildi. Fransuzlar Rishton sopolini Yevropaning eng mashhur sirlangan idishlari bilan taqqoslab, u ko‘hna qit’a sopolini bellasha olishini e’tirof etdi.

Rishton kulollik buyumlari, miniatyuralari san’at shaydolari orasida katta shuhrat qozongan.

Shu yil 19-21-sentabr kunlari Rishton tumanida Xalqaro kulolchilik forumi, shuningdek, kulollar yasagan mahsulotlar ko‘rgazma-savdosi bo‘lib o‘tdi. Forum doirasida tumanga “Xalqaro hunarmandlar shahri” maqomi berildi. Bu bejiz emas, albatta.

RISHTONGA “XALQARO HUNARMANDLAR SHAHRI” MAQOMI BERILDI

Hech bir hududning kulollik namunalariga o‘xshamaydigan san’at asarlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Polsha, Shvetsiya, Iroq, Eron, Misr kabi mamlakatlarda bo‘lib o‘tadigan xalqaro ko‘rgazma va yarmakarlarda namoyish qilib kelinadi. Bu sopol buyumlarni qo‘lga olib chertsangiz, undan taralgan sehrli sas misoli kuyga aylanib, uzoq vaqt qulog‘ingiz ostida jaranglab turadi.

— Kulolchilik desa, ko‘pchilik uy-ro‘zg‘or buyumlari, idish-tovoqni tushunadi. Azilo, unday emas, — deydi kulol Alisher Nasirov. — Shogird bo‘lib yurgan kezarim loyni qo‘lga olsam, ustozim “Qani, avval loyga salom bering”, deb tuproq-loyga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, halol-pok bo‘lib ish boshlashni talab qilardi. So‘nggi yillarda kulolchilik maktabi yana gullab-yashnay boshladi. Davlatimiz

rahbari tashabbusi bilan bunyod etilgan “Xalqaro hunarmandlar markazi” ustalarimiz g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi. Bu yerda kulolchilik maktabidagi milliy an’analar, o‘ziga xoslikni saqlab qolgan holda hunarni yanada boyitish yo‘lida samarali ishlar qilinmoqda. Dunyo kulollari jamlangan festivalga alohida hozirlik ko‘rdik. Mehmonlar mahsulot tayyorlash jarayoni bilan yaqindan tanishdi. Xalqaro forum hamkorlik aloqalarini kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish imkoniyatini berdi.

Rishton kulolchiligiga xos uslubda yasalgan, bir-birini takrorlamagan serjilo sopol buyumlar tayyorlash, unutilgan an’analarni tiklashga alohida e’tibor qaratilyapti. Masalan, lojuvard-moviy rang inson qalbiga ulug‘vorlik bag‘ishlab, g‘alaba sari da’vat etadi. Mis — firuza, malhash — qo‘ng‘ir, zardpazlik — sariq, safedpazlik — oq ranglar ko‘hna kulolchilik maktabida alohida ahamiyatga ega. Tabiiy giyohlardan tayyorlangan bu ranglar bir-biri bilan uyg‘unlashib, buyumlarga o‘ziga xos joziba beradi. Asrlar davomida o‘z ko‘rinishini yo‘qotmaslik xususiyati bilan ajralib turadi. Shu bois, mahsulotlar nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham mashhur.

— Dunyoda kulolchilik an’analari, turlari ko‘p, juda rang-barang, — deydi moldovalik hunarmand Yevgeniya Bulachenko. — Ammo oddiy tuproqdan yasalgan san’at asarlariga boqib juda hayratlandim. Moldovada



ham kulolchilik an’analar rivojlangan, lekin rishtonlik kulollar yasagan mahsulotlar tabiiy ko‘rinishi, uyg‘unlashgan rang-tasvirlarga boyligi bilan e’tiborini tortdi.

— Kulolchilikning boy merosini yaqindan ko‘rib, mahalliy ustalar bilan suhbatlashganimgan juda xursandman, — deydi belaruslik hunarmand Aleksandr Bisxo. — Anjumanga o‘zimiz tayyorlagan kulolchilik buyumlaridan namunalar olib kelganmiz. Forum doirasida “Bir qo‘l kulol” spektaklini namoyish etish niyatimiz bor. Bu orqali kulolchilik san’atini yanada qiziqarli va tomoshabop tarzda ko‘rsatishga harakat qilamiz.

— Rishton haqiqatan dunyo kulolchiligining yuragi, — deydi gruziyalik hunarmand Levan Glegalashvili. — Bu yerdagi asriy an’analarni ko‘z bilan ko‘rish, ustalar bilan muloqotda bo‘lish men uchun katta sharaf. Forumdagi samimiy muhit, mehmondostlik va tashkilotchilik yuqori darajada. Yurtimgiz menga yangi g‘oyalar va ijodiy ruh bag‘ishladi.

Xalqaro kulolchilik forumi doirasida “Rishton an’anaviy kulolchilik muzeyi” ochildi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2020-2021-o‘quv yilidan boshlab davlatimiz rahbarining alohida qarori bilan o‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Qurolli Kuchlar va davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlash maqsadida Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiya tarkibida “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari tashkil etilgan edi.

Bu litseylar harbiyli kni orzu qilgan juda ko‘p yoshlar va ularning ota-onalarida katta qiziqish uyg‘otdi. Ayni maktabga o‘z vaqtida va to‘g‘ri asos solinganiga bugun guvoh bo‘lib turibmiz. Zero, o‘z nomiga monand mazkur ta‘lim muassasalarida buyuk ajdodimizning munosib vorislari — temuriylar, asl vatan himoyachilari tarbiya topyapti. Prezidentimizning “Mana shunday ilg‘or maktabda o‘qiyotganingiz bilan sizlarni, ota-onalaringizni tabriklayman. Sizlar yangi O‘zbekistonning qanotisizlar. Bu qanotlar nima bilan kuchli bo‘ladi? Bilim bilan! Kamida ikki-uchta tilni, aniq fanlarni va tariximizni mukammal bilishingiz kerak. Mana, bu maktabda psixologiya fanini ham kiritdik, uniyam yaxshi o‘rganing. Sizlarda hamma imkoniyat bor”, degan gaplari ularga kuch bag‘ishlab turadi.

Aslida, bugun turli yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilayotgan maktablarning barchasi yangi avlod vakillarining noyob qirralarini ochishga, ularni kelajak kasblariga yo‘naltirishga xizmat qilaypti. Ya‘qinda davlatimiz rahbariga ta‘lim tizimini isloh qilish masalalariga oid qator takliflar taqdim qilindi. Endilikda iqtidori yoshlarga sharoit yaratish uchun viloyatlarda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan Al-Xorazmiy, muhandislik bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek, tabiiy fanlar yo‘nalishida Ibn Sino maktablari filiallari tashkil etiladi. Nasib qilsa, bu maktablar o‘z yo‘nalishi doirasida fan-ta‘limning yuzlab umidli vakillarini qamrab oladi.

Bu yil esa respublikamizdagi 208 ta maktabda bolalarni kichik yoshidan vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog‘lom va ma‘naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan “Jasorat maktabi” sinflari birinchi o‘quvchilarini qabul qilindi. “Jasorat sinflari”ga kirish uchun hujjatlar joriy yilning 1-20-iyun kunlari onlayn shaklda (ariza.piima.uz sayti orqali) amalga oshirildi. Qabul jarayonlari uchun qisqa raqamli Call markaz va alohida shib tashkil etildi. Jami 18 ming 441 talabgordan 13 ming 206 nafari o‘g‘il bola, 5035 nafari qiz edi. Ikki bosqichli saralash (jismoniy tayyorgarlik sinovlari va test) orqali 5400 dan ziyod o‘quvchi qabul qilindi. “Jasorat maktabi” o‘quvchilari nafaqat harbiy, boshqa sohalarida ham faoliyat yuritishi mumkin. Zero, ularga matematika, CHQBT (chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik), tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika kabi fanlar chuqurlashtirib o‘tiladi. Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri o‘rinbosari Farhod Boqiyev bilan suhbatdan so‘ng “Jasorat maktabi” borasidagi tushunchalarimiz yanada kengaydi. O‘zimizni qiziqirtirgan ayrim ma‘lumotlarga aniqlik ham kiritib oldik.

Farhod Boqiyev ko‘plab davlatlar ertasining egalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

uchun katta-katta mablag‘larni ayamaslighi, shu ma‘noda, bizda ham bu masalaga jiddiy qaralayotganidan gap boshladi.

— Xususan, 2024-yilda ta‘lim bilan bog‘liq



juda muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 15-noyabrdagi tegishli qarori bilan o‘quvchi yoshlarni chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorlovni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi vazifalar belgilab berildi. Shundan kelib chiqqan holda 2025/2026-o‘quv yilida 10 ming 134 ta umumta‘lim maktabida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslari yangi bosqichga o‘tkazilyapti, — dedi vazir o‘rinbosari.

Uning aytishicha, bugun har bir maktabda yangi namunadagi CHQBT sinf xonasi ham tashkil etilib, milliy armiyamizda ishlatilayotgan qurol-aslahalar, kiyimlaru buyumlar bilan jihozlanaypti. 2025-2028-yillarda 7915 ta sinfonxoni to‘liq jihozlash maqsad qilingan. CHQBT fanini o‘qitishda ham bugun yangicha yondashuv va ustublar ishlab chiqilyapti. Mudofaa hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirliklarida alohida tarkibiy bo‘limna tashkil etish ko‘zda tutilgan. Ichki normativ hujjatlar to‘liq yangilanganaypti. 2025-yil 1-iyundan maktablardagi CHQBT rahbari shtatlari Mudofaa vazirligiga o‘tdi. Xullas, endi CHQBT darslarining harbiy tayyorgarlik sifatiga Mudofaa vazirligi, pedagogik tomoniga esa Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi mas‘ul bo‘ladi.

Tuman, shaharlardagi bittadan umumiy o‘rta ta‘lim maktabi negizida esa 208 ta “Jasorat maktabi” ish boshladi. Ular o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga humat, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Yoshlarda harbiy xizmatni ado etishda zarur bo‘ladigan dastlabki harbiy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish,

oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun maqsadli tayyorlashga xizmat qiladi. Bu maktablar drayver, lokomotiv sifatida ma‘rifat poligoniga aylanib, atrofdagi boshqa maktablarni ham ergashtiradi. Ularda kelajak o‘yinlari, dronlar, harbiy musobaqalarning shahar, viloyat, respublika bosqichlari o‘tkazib boriladi. “Jasorat maktabi”ga harbiy ta‘lim muassasalari, Temurbeklar harbiy litseylari metodik yordam

shukrini eshitib, shu maktabga rahbarlik qilayotganimdan quvonib ketaman. Dars yakunlanganda ham farzandlarini olib ketish uchun kelgan ota-onalar bilan suhbatlashib, ularning xursandchiligiga sherik bo‘laman. Suhbat chog‘ida ularning maktab ta‘limiga qaratilayotgan e‘tibordan rozi ekanini tinglab ko‘nglim yayraydi.

Qaror bo‘yicha Surxondaryo viloyatidagi shahar va tumanlarda jami 15 ta “Jasorat

maktabi” tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. “Jasorat maktabi” sinflarida o‘qish muddati yetti yil (5-11-sinf).

Keyingi yil qabuli hozirdan boshlanib ketdi

Yuqoridagi qaror e‘lon qilingan kundan boshlab Mudofaa vazirligining Denov tumanidagi Xayrobd garnizonida joylashgan harbiy qism tumanidagi 100-umumta‘lim maktabini otaliqqa oldi. Belgilangan tartib bo‘yicha tumanidagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfini bitirgan o‘quvchilardan 121 nafar o‘g‘il-qizning hujjatlari qabul qilindi. Yuqori ball to‘plagan 5 qiz, 21 o‘g‘il bola Denov “Jasorat maktabi”ning ilk o‘quvchilariga aylandi. Maktab direktori Ahror Meliyev vatanparvar o‘quvchilari haqida to‘qlinlab gapirdi:

— 2-sentabr kuni bu o‘quvchilarimizni maxsus kiyimda ko‘rgan boshqa o‘quvchilar, ota-onalar va mehmonlar o‘rinlaridan turgan holda olqishlab, tabrikldi. Shu kunning o‘zidan farzandini kelasi yil “Jasorat maktabi”ga qabul qilishimizni so‘ragan ota-onalar ko‘payib, hozir qariyb 100 nafarga yetib qoldi — deydi u. — Hatto yon-atrofimizdagi maktablarda bu yil 4-sinfda o‘qiyotgan o‘quvchilarni maktabimizga ko‘chirib o‘tkazishga harakat qilinaypti. To‘g‘risi, birinchi yil bo‘lgani uchun ko‘plab ota-onalar “Jasorat maktabi”ning mohiyatiga chuqur tushunib yetmaganini aytaypti.

Har kuni ertalab farzandlarini “Jasorat maktabi”ga olib kelgan ota-onalar ko‘zidagi quvonchni ko‘rib, shunday saroitga nisbatan

maktabi” tashkil etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ro‘yxatga bizning maktab ham kiritilgani menga va jamoamizga bildirilgan yuksak ishonchdir. Ta‘lim dargohimizning Mudofaa vazirligiga biriktirilgani esa barchamizga cheksiz g‘urur bag‘ishladi. Bu yog‘iga faqat va faqat ishonchni oqlash yo‘lida astoydil mehnat qilamiz.

Harbiy libosning o‘zi ham faxr

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 14-ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi direktori Dilafo‘z Abdiyeva 25 yillik tajribaga ega pedagog.



Mamlakat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shini ta‘minlashda investitsiyaning o‘rni beqiyos. U nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, balki zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi, ilg‘or tajriba va innovatsion yechimlar joriy etilishi, shu orqali minglab yangi ish o‘rni ochilishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda eng muhim omillardan biri yangi texnologiyalarda ishlay oladigan, kasbiy ko‘nikmaga ega yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Davlatimiz rahbarining Bo‘stonliqda o‘qituvchi va murabbiylar bilan mulqotida aynan shu masalaga alohida urg‘u berildi. Xususan, yoshlar zamonaviy kasb-hunarlarini egallab, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun barcha zarur sharoit yaratish, ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish muhimligi qayd etildi.

Texnikumdagi ta‘lim dasturlarini 30 foizgacha o‘zgartirish mumkin. Ayni paytda mehnat bozorida ish o‘rinlarining asosiy qismi tadbirkorlik, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ochilyapti. Shu jihatdan mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimiga, xususan, texnikumlariga urg‘u berilayotgani diqqatga sazovor. Eng muhimi, ta‘lim mazmuni mehnat bozori talablariga mos holda o‘zgarib turadi. Masalan, biror hududda sanoat yoki xizmat ko‘rsatish sohasi keng rivojlanayotgan

Ta‘lim islohotlari

TEXNIKUMLARDA KADRLAR INVESTORLAR BUYURTMASI ASOSIDA TAYYORLANADI

bo‘lsa, o‘sha yerdagi texnikumlar o‘quv dasturi ham mos ravishda takomillashtiriladi. Bu esa bitiruvchilarning ish bilan ta‘minlanish imkoniyatini keskin kengaytiradi.

Shu maqsadda oliy ta‘lim tizimida tasdiqlangan namunaviy dasturlarning muayyan qismi ish beruvchi talablari asosida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Ya‘ni o‘quv dasturlariga zamonaviy texnologiyalar va aniq sohaviy bilimlar integratsiya qilinib, talabalar umumiy nazariy bilim bilan birga amaliyotda asqatadigan kompetensiyalarga ega bo‘ladi. Ayniqsa, dual ta‘lim dasturlari mazkur jarayonda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday dasturlar ish beruvchi bilan bevosita hamkorlikda ishlab chiqiladi. O‘quvchilarning nazariy tayyorgarligi ish joyidagi amaliy tajriba bilan uyg‘unlashadi.

Qisqacha aytganda, texnikumlardagi islohotlar kadrlar tayyorlashning mazmun-mohiyatini tubdan yangilab, ish beruvchi ehtiyojiga mos, raqobatbardosh va zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishi uchun mustahkam asos yaratmoqda.

— Bundan tashqari, bir yilda 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘liga qo‘yildi. Ularning eng ilg‘or kasbiy ta‘lim dasturlari joriy qilinadi, — dedi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi kasbiy ta‘lim departamenti boshlig‘i Shayxnazar Sharofiddinov. — Shuningdek,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

kasbiy ko‘nikmaga ega istalgan talabgor bu texnikumlarda xorijiy davlatlarning malakani baholash tizimi orqali imtihondan o‘tib, xalqaro sertifikat olishi mumkin.

Texnikumlarda “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri asosida har bir loyih bo‘yicha dual ta‘lim yo‘liga qo‘yilishi ham e‘tiborga molik. O‘quv jarayoni va ishlab chiqarishni uyg‘unlashtiruvchi bu ta‘lim

tizimi o‘quvchilar nazariy bilimini amaliyotda mustahkamlash, korxonalarining o‘z ehtiyojiga mos mutaxassislarni tayyorlashida muhim ahamiyat kasb etib kelayotir.

Dual ta‘lim bilan qamrov 5 barobar oshirilishi kutilaypti. Hamkor korxonalarga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi. Dual ta‘lim orqali ishlayotgan o‘quvchilar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov ikki barobar qisqartiriladi. Bu

— Kelashingizdan salgina avval o‘qituvchilar bilan aynan “Jasorat maktabi” o‘quvchilari haqida suhbatlashib turgandim, — dedi opa.

Uning aytishicha, ilk darsdayog‘ saralab olingan o‘quvchilar faollikni ortiq‘i bilan namoyon eta olibdi. O‘qituvchilar bolalarning juda kuchli, hozirjavob ekani, ayniqsa, matematikadan berilgan savollarga murakkab yechimlar bilan javob berayotganini alohida e‘tirof etgandan biz ham quvondik.

Dars mashg‘ulotlari haqida gap ketganida, opadan “Jasorat sinflari”da darslar qay tarzda o‘tilayotganini so‘radik. Opa “Jasorat maktabi”da umumiy o‘rta ta‘lim fanlari soatlarini maqbullashtirish hisobiga matematika, fizika, tarix, chet tili va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘tilayotganini aytdi. O‘quvchilar bilan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazishda turli zamonaviy shakllar va usullardan, jumladan, o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha fakultativ va to‘garak mashg‘ulotlari hamda o‘quvchilarni vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash tadbirlaridan foydalanilyapti. “Jasorat sinflari”ga dars beradigan o‘qituvchilar Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti mahorat darslarida qatnashib, sertifikat olgan.

— Chuqurlashtirilgan darslar faqat darsliklar bilan bog‘lanib qolmay, qo‘shimcha adabiyotlar, to‘garaklar o‘tilishi o‘qituvchilarga tushuntirilib, tayanch reja asosida darslarni tashkil etyapmiz, — deydi maktab direktori.

15 o‘g‘il boladan qolishmayotgan 11 qizni ko‘rib, xursand bo‘lasiz kishi. Suhbatlashsangiz, ularning bari, avvalo, harbiy libosning o‘zi bir olam g‘urur bag‘ishlaganini bolalarcha beg‘uborlik bilan aytdi. Vatanga mardlarcha xizmat qilishdan faxrlanish oliy maqsadi ekani esa ancha-muncha yigitlarni o‘ylantirib qo‘yadi. Eng muhimi, avvallari o‘g‘il bolani ham harbiylikka berishdan cho‘chigan ota-onalar bugun yangicha fikrlaypti. Qizlar ham harbiy sohaga dadil kirib kelayotgan ekan, demak, qaysidir ma‘noda bugunning Barchinoyu To‘marislarini tarbiyalay olyapmiz. Ular nasib qilsa, Alpomishu Jaloliddinlarni kamolga yetkazadi.

— Chorak asrdan buyon ta‘lim sohasida xizmat qilayotgan shaxs sifatida aytamanki, juda to‘g‘ri yo‘l damiz, — dedi Dilafo‘z opa biz bilan xayrlasharkan. — Chunki bolalarning ko‘zlari yonib turibdi. Bunday nigohlar ertangi kunga umid belgisi.

Baxtiyor onalarning bir vakili

Barcha viloyatlardagi kabi Adijonning 16 ta shahar va tumanida ham “Jasorat maktabi” ochildi. Ulug‘nordagi 13-umumta‘lim maktabini ular orasida yetakchilardan biri, desak xato qilmaymiz. Zero, maktab direktori Qanoat Otaxonovaning o‘zi e‘tirof etganidek, hamma maktab ham “Jasorat maktabi” bo‘la olmaydi.

— Bizda poydevor mustahkam. Har yili tuman, viloyatda bo‘lib o‘tadigan harbiy musobaqalarda o‘quvchilarimiz 1-o‘rinni olib keladi. Qator yutuqlarimiz bizni tumanda harbiy ta‘lim bo‘yicha yetakchi maktabga aylantirdi, — deydi direktor.

“Jasorat maktabi”ning aynan mazkur ta‘lim dargohida tashkil etilishida maktabning CHQBT o‘qituvchisi Bahodir Vahobovning hisssasi katta. U o‘ziga xos pedagogik mahorati bilan ko‘plab o‘quvchilarni ergashtira olgan, harbiy sport mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etib keladi. Ayniqsa, uning qo‘l ostida muayyat, qo‘l jangi sirlarini o‘rgangan yoshlar ko‘plab musobaqalardan shunchaki qaytmaydi, g‘alaba ular tarfda.

— Oldimizga juda katta maqsad qo‘ydik. Yuragida vatan ishqil bilan kelgan o‘quvchilarimiz kelajakda oliy harbiy ta‘lim muassasalariga kirishi uchun mustahkam poydevor yaratamiz, — deya yeng shimargan Bahodir aka qiyofasida 200 dan ziyod shunday fidoyini ko‘rdik.

— Bolam uchuvchi bo‘lishni orzu qilardi. Mana, o‘z-o‘zidan yo‘llarimiz ochilib, o‘g‘lim “Jasorat sinfi”ga qabul qilindi. Bu yerda dars beradigan ustozlarni ko‘rdik. Kuchli iroda, matonat ularni boshqalardan ajratib turibdi. Uning vatanimizni himoya qiladigan yigit bo‘lib yetishishidan xursandmiz, — degan Hilola Ismoilova esa 5-sondan ziyod baxtiyor onalning bir vakili. Buni uning o‘zi ham qayta-qayta tilga oldi. Zero, davlatimiz rahbari tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan taklifni tashabbuslar sabab ularga farzandi bilan g‘ururlanish baxti juda erta nasib etdi.

Kelajakda “Jasorat maktabi”ni “a lo” baholar bilan tamomlagan, “Vatan tayanchi” otryadi a‘zosiga aylangan o‘quvchilarga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq oliy harbiy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi. Bu esa alohida e‘tibor ostida tarbiya topish, ta‘lim olish barobarida yuksak maralar sari intilishga ham kuch beradi. Xulosa qilib aytganda, “Jasorat maktabi” yuragida olov yongan, vatan tug‘ini baland ko‘tarishdan faxr tuyadigan ertamiz egalarini kamolga yetkazadi.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

— Mamlakatimizda kasbiy ta‘lim va kasbga o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar juda ko‘p, — deydi Shayxnazar Sharofiddinov. — Biroq ularning har biri o‘ziga xos yondashuv bilan faoliyat yuritadi. Natijada mehnat bozoriga muayyan kasb bo‘yicha zarur malakaga ega bo‘lmagan mutaxassislar kirib kelishi ehtimoli ortib bormoqda. Ushbu holatning oqibatlari ichki mehnat bozorida ham sezilyapti. Shu bois, kasbiy ta‘lim sohasida yagona standartlarni ishlab chiqish va amaloytga joriy etish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki mehnat bozori uchun haqiqiy raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu xalqaro mehnat bozoriga chiqishda ham qo‘l keladi. Kasbiy ta‘lim agentligi tashkil qilinishi va uning oldiga 598 ta texnikumda xalqaro standartlarni joriy qilish vazifasi qo‘yildi. Bu, avvalo, kasbiy ta‘lim sifati yuksalishi, bitiruvchilar sifati mutaxassislar bo‘lib chiqishiga xizmat qiladi.

Xalqaro mehnat bozorida yurtimizda tayyorlanayotgan mutaxassislar kvalifikatsiyasi to‘laqonli tan olinishi, ularga munosib ish haqi belgilanishi uchun kasbiy ta‘lim tizimi yaxlit va sifat standartlariga asoslangan bo‘lishi zarur. Bu jarayon, avvalo, kadrlar tayyorlashda yagona yondashuvni ta‘minlaydi. Ikkinchidan, bitiruvchilarning xalqaro talablariga mos ravishda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Shu ma‘noda, xorijiy tillarni o‘rgatish, zamonaviy kasblarga yo‘naltirish va raqobatbardosh malakani shakllantirishga ustuvorlik berish ayni vaqtda dolzarb vazifalardan biri.

Bundan tashqari, baholash jarayonini samarali xalqaro me‘yorlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki obyektiv va shaffof baholash orqali mutaxassislar malakasi xalqaro maydonda e‘tirof etiladi, bu esa ularning ish beruvchilar oldidagi obro‘sin mustahkamlaydi.

Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

